

**OLIY TA'LIMDA SAMARALI ONLAYN TA'LIM TIZIMINI YARATISH  
TEXNOLOGIYALARI**

**Ibragimova S.B.**

O`zDJTSU

Masofaviy o`qitish zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lism jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. O`qitishning bu shakli ta'lism oluvchilar va o`qituvchilarning bir-birlari hamda o`qitish vositalari bilan o`zaro ta'sirining maqsadga yo`naltirilgan interfaol jarayonidan iborat bo`lib, bunda ta'lism jarayoni ularning qaerda turganiga bog`liq bo`lmaydi.

Ta'lism jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya'ni o`qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va nazorat kabi elementlarni qamrab olgan o`ziga xos pedagogik tizimda kechadi.

Masofaviy ta'lism o`qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish, turg`un sharoitda o`qish imkoniyatiga ega bo`lmagan, imkoniyatlari cheklangan o`quvchilar, shuningdek, pandemiya sharoitida farzandini sog`ligidan xavotilanayotgan ota-onalarga juda qulay sharoitni yaratib beradi. Masofaviy ta'limga quyidagi beshta asosiy holat bilan tavsiflanuvchi ta'lism sifatida harash mumkin:

- o`qituvchi va o`quvchining mavjudligi;
- ta'lism jarayonining ma'lum masofada amalga oshirilishi;
- o`rgatuvchi va o`quvchining o`zaro ikki yoqlama muloqoti;
- masofaviy o`qish uchun mo`ljallangan maxsus materiallarning mavjudligi;
- har ikki tomonning kompyuter va boshqa texnika va kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanganligi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, ta'lism tizimida AKT ni qo`llash, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara beradi. Shuning uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlarni davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunnig dolzarb vazifalaridan biridir.

Onlayn o`qitish o`qituvchilarning kasbiy rivojlanishlari uchun metodik yordam vazifasini ham o`taydi, bu esa o`qituvchilarga ularning o`quvchilari singari, o`qishni davom ettirish uchun zarur bo`lgan kasb resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Agar Internet orqali mustaqil malaka

oshirish to`g`ri amalga oshirilsa, har bir o`qituvchi tajribasidan qat'iy nazar eng yaxshi ta'lif resurslarini o`rganish imkoniyatiga ega bo`ladi. Ular virtual tarmoqda yuqori malakali ustoz o`qituvchilarni kuzatib borib, eng qiyin vaziyatlarda samarali strategiyalar bilan ishlaydigan vaziyatlarga tayyorlanishi

va bu borada ular bilan o`zaro fikr almashishi mumkin. Onlayn tarmoqlar, shuningdek, yosh o`qituvchilarni o`zlarining tengdoshlari bilan bog`laydigan va maktabida taqdim etilmagan qo`shimcha metodik yordam orqali onlayn-ta'lif jamoalaridan qo`llab-quvvatlanishlari mumkin. Ya'ni, o`qituvchilar boshqa o`qituvchilar bilan norasmiy ravishda, masalan, boshqa (Kasbiy rivojlanish uchun virtual muhit) manbalar orqali bog`lanishlari mumkin.

Mustaqil masofaviy malaka oshirish o`qituvchilarga kasbiy layoqatini auditoriyadan chiqmasdan kengaytirish imkonini beradi. Yangi ko`nikmalarni

rivojlantirish uchun sifatli kasbiy rivojlanishdan doimiy ravishda foydalanish imkoniga ega bo`lmasdan o`qituvchilar endi eng yaxshi amaliyotlarni

Internet orhalı o`rganishlari mumkin. Muxtasar qilib aytganda, onlayn o`rganish kasbni yanada moslashuvchan, ijodiy va bir so`z bilan aytganda ko`proq professionalga aylantirib, kasb doirasini kengaytirishi mumkin. Bu esa fan o`qituvchilarining onlayn jamoalarini shakllanishiga olib keladi.

Samarali onlayn ta'lifni tashkil etish uchun quyidagi texnologiyalardan biri yoki bir nechta mayjud bo`lishi talab etiladi:

- Kompyuter;
- Web Internet brauzeri, telegram yoki elektron pochta orhalı Internetga kirish imkoniyati;
- Telefon;
- Ta'limi bossharish tizimi (LMS);
- Kontentni bossharish tizimi (CMS);
- Ta'limning Internet resurslari.

Onlayn darslarni samarali tashkil etish uchun zarur bo`lgan axborot, aloqa

va texnologiyalar ko`nikmalarni rivojlantirish, onlayn darslarni samarali rivojlantirish uchun onlayn muhitdan to`liq foydalanishi imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, onlayn darslar o`quvchilardan ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ta`minlaydi.

Onlayn darslar interaktiv bo`lib, Internetda taqdim etilgan barcha manbalar va vositalardan foydalanish, an'anaviy darslarda bo`lgani kabi, onlayn darslar ham o`quvchilar kutgan natijalarini aniq belgilab, baholashning o`ziga xos mezonlarini o`z ichiga olinadi. Ya'ni, asosiy e'tibor talabalarga darsdan kutgan natijalarini aniq va to`g`ridan to`g`ri etkaziladi.

Masofaviy o`qitishning ijobiylari (moslashuvchanlik, ehtiyojga yo`naltirilganlik, individuallashtirish va boshqalar) ko`p bo`lsada, lekin yuzmayuz muloqotning yo`qligi sababli o`quvchilarning faolligi ta'minlanmasligi mumkin. Boshqa tomondan esa texnologiya va onlayn o`qitish til o`rganuvchilar va imkoniyati cheklangan o`quvchilar eqtiyojlarini qondiradi. O`qituvchilarga masofadan turib o`qitish paytida barcha talabalarni mashqulotda faol qatnashishlariga yordam beradigan bir qancha usullar mavjud. O`qituvchining mavjudligi onlayn treningning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

1. O`qituvchi tomonidan joylashtirilgan haftalik video o`quvchilarga o`qituvchining qiyofasi va ovozi orqali o`qituvchiga bog`lanish imkonini beradi.

Videolar qisqa 3 daqiqa yoki undan kam bo`lishi mumkin. Shu vaqt ichida o`qituvchi o`tgan hafta o`tilgan muhim tushunchalarni qayta esga solishi va shu hafta nimalar o`tilishini haqida ma'lumot berishi mumkin. Oddiy videolarni internetda mavjud bepul dasturlar (Screencastify va boshq.) yordamida yozib olish mumkin.

2 O`qituvchilar savollar berish va savollarga javob berish orqali ham ishtirok etib o`quvchilarning faolligini ta'minlashi mumkin. Bu borada o`qituvchilarga yordam beradigan ko`plab onlayn vositalar mavjud (ta'lif platformasining savol-javob saqifalari yoki telegram kanalida guruh muloqotlar).

3 Tez-tez formativ baqolashlardan foydalanish. An'anaviy ta'limdi o`quvchilarni yangi mavzuni o`zlashtirganligini anglash ancha oson. Onlayn o`qitishda esa Google Forms, Microsoft Forms, Poll Everywhere, Mentimeter kabi bepul vositalar yoki elektron ta'lif platformasi o`quvchini o`zlashtirishdagi qiyinchiliklarini aniqlash va ularning individual eqtiyojlariga yo`naltirilgan ta'limi tashkil etish imkonini beradi.

4. Guruh bilan ishlash Samarali onlayn ta'lif muqitini yaratish oson emas. Bundan tashqari u yakkalovchi ham bo`lishi mumkin. O`qituvchilar hamkorlikda ishlab o`quvchilar uchun qiziqarli darslar va mashqulotlar yarata olishlarini unutmasliklari lozim. hamkasblar bilan ma'lumot almashish va hamkorlikda ishlash stressni va ish yuklamasini kamaytiradi.

Hamkasblar bilan ishlashda siz elektron ta'lim platformasi yoki Google Classroom orqali darslar va manbalarni baham ko`rishingiz mumkinligini unutmang. Bu o`qituvchilarga mavjud ta'lim resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

5. Faol ta'lim olish muhitini yaratishga e'tibor qaratish So`nggi yillarda umumiyl o`rta ta'limda "ma'ruza" modelidan asta-sekin voz kechilmoqda. An'anaviy ta'limda yuzma-yuz muloqot orqali amalga oshirilgan faol ta'lim olishni virtual sinfonada ham qo'llash mumkin. Dars davomida xonada bo`limgan o`quvchilarni jalb qilishda o`qituvchilar quyidagilardan foydalanishi mumkin:

- a) Faol munozaralar;
- b) hamkorlikda vazifa va topshiriqlarni bajarish;
- c) Video va audio materiallar bilan ishlash;
- d) Tarqatma materiallar bilan ishlash;
- e) Individual topshiriqlar berish.

Ana'anviy ta'limda sinfda o`quvchilarni bir xil sur'atda ishlashlarini ta'minlash nisbatan oson. O`qituvchi vazifa berishi va dars yakunida vazifalarni yiqib olishi mumkin. Ta'lim olish va o`zlashtirish sur'ati qaqida gap ketganda, masofaviy o`qitish muqitida shaxsiy ta'lim uslublari namoyon bo`ladi. Masalan, hafta boshida bir qafta davomida bajarilishi kutilayotgan ishlarni va

vazifalarni e'lon qilish;

Ba'zi topshiriqlar uchun belgilangan muddat o`rniga "vaqt oynalari" bilan ishlashga harakat qilish;

Masofaviy o`qitishning talablariga javob bermaydigan o`quvchilar uchun muddatlarni tabaqlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, "Ta'lim oluvchi" va "Ta'lim beruvchi" ikki tomonning dunyo qarashini o`zgartira olsak, ya'ni o`quvchini mustaqil ta'lim olishga, bilim olish yo'llarni mustaqil izlashga, o`qituvchini esa yangi bilimlar bilan raqamli texnologiyalar asosida qurollantirib, o`quvchilarga bilim olish yo'llarini o`rgatishini yo`lga qo`ya olsak, masofaviy ta'limda sifat ko`satkichlarini oshishiga erishamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. У.Н.Ташкенбаевнинг умумий таҳрири остида «Умумий ўрта таълим ташкилотларида масофавий таълим сифатини таъминлаш бўйича услубий қўлланма» Тошкент 2020

2. Ибрагимова С.Б. Проблема дистанционного обучения в вузах спортивной направленности Экономика и социум 91 (12/(91)2021), 1103-1108
3. Б.Р. Вафоев, С.Б. Ибрагимова Сравнительный анализ использования дистанционного обучения в вузах спортивной направленности Актуальные проблемы физической культуры и спорта, 117-121